



UYUSHGAN JINOYATCHILIKKA QARSHI KURASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA AHAMIYATI

Qurbanov Nodirbek O'ktam o'g'li

Annotatsiya: Ushbu maqolada uyushgan jinoyatchilik tushunchasi, uni boshqa turdag'i jinoyatlardan ajratish tendensiyasi, o'ziga xos xususiyatlari, sabablari va sharoitlari, hozirgi kundagi ko'rinishlari borasidagi fikrlar, statistikalar keltirilgan. Shuningdek, uyushgan jinoyatchilikning oldini olish va bartaraf qilish bo'yicha zarur tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: uyushgan jinoyatchilik, jinoyatchilik metodologiyasi, uyushgan jinoyatchilikning kriminalogik tavsifi, implementatsiya qilish, kriminal piramida, jinoyat submulturalari, oq jinoyat, uyushgan jinoyatchilik usullari, , profilaktik chora-tadbirlar.

Uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashning o'ziga xos xususiyatlari va ahamiyati

Dunyo rivojlanib borishi natijasida iqtisodiy ijtimoiy moliya bank-kredit tibbiyot yuridik sohalari da bir qancha o'sishga erishilganligi barobarida Bugungi kunda uyushgan jinoyatchilikning jahon miqyosidagi uyushganlik xususiyatidan kelib chiqqan holda, yana bir bor ta'kidlash joizki, ushbu ijtimoiy illat insoniyat taraqqiyotiga to'sqinlik qilayotgani tufayli unga qarshi kurashni zamonning o'zi taqozo etmoqda.

Uyushgan jinoyatchilikning o'zi nima?

Uyushgan jinoyatchilik - bu jinoyatchilar tomonidan noqonuniy faoliyat bilan shug'ullanadigan, asosan, foya olish maqsadida boshqariladigan yuqori darajada markazlashtirilgan korxonalarining transmilliy, milliy yoki mahalliy guruhlari toifasidir. Jinoiy tashkilot yoki jinoiy to'dani jinoyatchilarning hamjamiyati deb atash mumkin. Yevropalik sotsiologlar mafiyani ekstra-huquqiy himoya va kvazada huquqni himoya qilishni ta'minlashga ixtisoslashgan uyushgan jinoyatchilik guruhining bir turi sifatida. Ma'lum bir tashkilotlar, shu jumladan davlat xizmatchilari, politsiya kuchlari va korporatsiyalar, o'z faoliyatini Olib borish uchun ba'zan uyushgan jinoyatchilik usullaridan foydalananishlari mumkin, ammo ularning vakolatlari rasmiy ijtimoiy institutlar maqomidan kelib chiqadi. Uyushgan jinoyatchilikni boshqa turdag'i jinoyatlardan ajratish tendensiyasi mavjud. Ular:

- oq jinoyat;
- moliyaviy jinoyatlar;
- siyosiy jinoyatlar;
- harbiy jinoyatlar;



- davlat jinoyatlari;
- xiyonat.

Qonuniy biznesga yoki davlatga kirib borish noqonuniy tovarlar va xizmatlarni taqdim etishdan ko‘ra ko‘proq xavflidir. Tashkilotlar va hukumatlarga kirib borgan holda, uyushgan jinoiy guruhlar noqonuniy tovarlar va xizmatlarni taqdim etishda mavjud bozorni ekspluatatsiya qilish o‘rniga, o‘z xizmatlariga talabni yaratishga harakat qilishadi. Masalan, uyushgan jinoiy guruhlar o‘z xodimlariga va mijozlariga zarar etkazish, shikastlanishdan yoki zararlanishdan¹ himoya qilish evaziga odamlar yoki biznesga noqonuniy "soliq solish" tizimlarini, ya’ni himoya raketalarini ishlatsi mumkin. Shu tarzda, ular monopolistik boshqaruvning biron bir shaklini olish uchun zo‘ravonlik va tahdidlardan foydalanadilar. Huquqiy jihatdan uyushgan jinoiy guruhlar jinoiy maqsadgaerishish uchun qasddan yoki oshkora tahidlarni o‘z ichiga olgan qonuniy biznes va hukumatlarga kirib borishda majburlash yoki tovlamachilikdan foydalanadilar. O‘rganishlar davomida uyushgan jinoyatchilikning beshta usullari tahlil qilingan:

- ❖ moliyaviy xizmatlar;
- ❖ Texnologiya;
- ❖ iste’mol tovarlari va chakana savdo;
- ❖ qurilish va ko‘chmas mulk;
- ❖ transport va logistika

Olimlarning tahlili natijalari bo‘yicha beshta asosiy natijalar qayd etildi:

- Xususiy sektorning tarmoqlari uyushgan jinoyatchilikka yordamchi yoki uyushgan jinoyatchilarning nishoniga aylanadilar.
- Qurilish va tabiiy zaxiralarda ish olib boradigan, orasida jinoyatchilikni avj olganligi aniqlangan.
- Transmilliy uyushgan jinoyatchilikning ta’siriga qarshi kurashish uchun davlat va xususiy sektor o‘rtasida samarali hamkorlik zarur 2006 yilda tashkil etilgan uyushgan jinoyatchilik va korrupsiya to‘g‘risida xabar berish loyihasi (Organized Crime and Corruption Reporting Project (OCCRP)) Sharqiy Yevropa, Kavkaz, Markaziy Osiyo va Markaziy Amerikada faoliyat yurituvchi tergov markazlari, ommaviy axborot vositalari va jurnalistlarning konsorsiumidir.

OCCRP - uyushgan jinoyatchilik va korrupsiyaga ixtisoslashgan yagona tergov hisobotini beradigan tashkilot hisoblanadi. Uyushgan jinoyatchilik va korrupsiya to‘g‘risida xabar berish korrupsiya to‘g‘risida xabar berishga bag‘ishlangan notijorat tashkilot. U OCCRP tarmog‘i uchun tergov hisobotlari platformasini taqdim

¹ H.P.Abulqosimov, Mo’mnov N.G. Mo’mnov Xufyona iqtisodiyot /o’quv qo’llanma /Toshkent”Yangi nashr”
2020 227-bet

etadi: 30 dan ortiq mamlakatlarda joylashgan notijorat tergov markazlari, ko‘plab jurnalistlar va Yevropa, Afrika, Osiyo, Yaqin Sharq va Lotin Amerikasidagi ko‘plab yirik mintaqaviy yangiliklar tashkilotlari. OCCRP korrupsiyaga oid jadvallarni ochish va hokimiyatdan suiste’mol qilinishini fosh etish orqali ko‘proq javobgarlikni oshirish uchun ishlaydi. Agar neoinstitutsionalistlar kriminal faoliyatni bozorga joriy etsalar, bu bozorda turli darajada markazlashgan tovar ishlab chiqaruvchilar amal qilishi zarur bo‘ladi. Legal biznesda qaysidir ishlab chiqarishini tashkil qilishning barcha mumkin bo‘lgan doirasi sof raqobat (ko‘plab mayda firmalar) dan monopoliyaga qadar (bitta yagona yirik firma) amal qiladi. Jinoyatchilik biznesi qanday tashkil qilingan? Uyushgan jinoyatchiliq iqtisodiyoti bo‘yicha mutaxassislar ushbu muammo bilan shug‘ullanadilarmi? (economics of organized crime) Agar uyushgan jinoyatchilikni tashkilot iqtisodiyot nazariyasiniqtai nazaridan o‘rganilsa, uni firma bilan ham, davlat bilan ham, jamoa bilan yaqinlashtiradigan umumiy belgilarni qayd etish mumkin. Uyushgan jinoyatchilik sivilizatsiya kabi eskidir: qaroqchilar floti va to‘dalari tarixning eng birinchi sahifalaridayoq uchraydi. Biroq taxminan bir asr avval vujudga kelgan zamonaviy uyushgan jinoyatchilik industrial davrgacha bo‘lgan jamiyatlar jinoiytashkilotlaridan tubdan farq qiladi. Zamonaviy turdagи uyushgan jinoyatchilikning vujudga kelishi – bu jinoyatchilik olamirivojlanishining sifat jihatdan yangi bosqichidir. Zamonaviy turdagи uyushgan jinoyatchilikning vujudga kelishi – bu jinoyatchilik olami Kriminologlar “uyushgan jinoyatchilik” to‘g‘risida sof jinoiy hamda xo‘jalik jinoiy guruhlariga tatbiqan gapirmoqdalar. Xorijiy kriminologiyada bu ikki hodisalar adolatli ravishda ajratiladi: jinoiy – gangster birlashmalarini (“Koza Nostra” xilidagi) “uyushgan jinoyatchilik”, xo‘jalik jinoyachilarini (“Lokxit” firmasi ishida qatnashuvchilar xilidagi) “oq yoqalilar jinoyatchiligi” (white-collar crime), deb ataladi. Agar “arxaik” to‘dalar marginallar, jamiyat autsayderlari hisoblansalar, u holda zamonaviy mafiyachilarning faoliyati asosan, qonuniy biznes asosiga quriladi, shuning uchun ham mafiya bozor xo‘jaligining uzviy muassasasi bo‘lib qoldi. Shu bilan bog‘liq ravishda M. Veber tomonidan yaratilgan birbiridan tubdan farq qiladigan “yashash istagi” ikki konsepsiyasini eslash maqsadga muvofiq. Ilgari yaratilgan ne’matlarni qayta taqsimlash yo‘li bilan boyish avanturistik xohishi (shu jumladan, o‘g‘irlilik va talonchilik yo‘li bilan) qadimgi zamonlardan buyon turli jamiyatlarda kuzatiladi. Ammo faqat kapitalistik tuzum sharoitidagina boylikka iste’mol ne’matlarini ishlab chiqarish ratsional faoliyatining qonuniy natijasi sifatidagi munosabat shakllanadi. “Boylik orttirishga tashnalik” ikki turi mavjud ekan, uyushgan jinoyatchilikning ham ikki turi – an’anaviy va zamonaviy turlari amal qiladi. An’anaviy uyushgan jinoyatchilik (misol sifatida masalan, XVII asrdagi Karib dengizi qaroqchilarini yoki XVIII asr boshlaridagi Parijo‘g‘rilarining “qiroli” - mashhur Kartush to‘dasini

eslash kifoya) butunlay zo‘ravonlikka asoslangan. Zamonaviy uyushgan jinoyatchilik asosan, “yo‘qotishlarsiz jinoyat” tarzida sodir etiladi –bu nafaqat jinoyatchilar, balki ularning xizmatidan foydalanuvchilaryutadigan faoliyatdir. Kriminologlar uyushgan jinoyatchilikning quyidagi asosiy tavsiflarini yakdillik bilan qayd etadilar:

- a) barqarorlik va uzoq muddatlilik;
- b) foydani maksimallashtirishga intilish;
- v) o‘z faoliyatini puxta rejalashtirish;
- g) mehnat taqsimoti, turli darajadagi rahbarlar va turli kasbdagi ijrochi – mutaxassislarga tabaqlashuv;
- d) pullik sug‘urta zahiralari (“umumiylamjamg‘arma”)ni yaratish bo‘lib, ulardan jinoiy tashkilot ehtiyojlari uchun foydalilanildi.

Reket - bu jinoiy va mulkiy ziyon yetkazish xavfi bilan gangster “soliqlari”ning to‘planishidir. Soliqlarni yig‘gan holda jinoiy tashkilot odatda “soliq” solingan tadbirdirkorlarga boshqa jinoiy guruhlarning yoki individual jinoyatchilarning tajovuzlaridan himoyalashni kafolatlaydi. Barqaror to‘lovlarni kafolatlash uchun reketlar o‘z mijozlari o‘rtasidagi mulkiy nizolar (qarz majburiyatları, shartnomaviy kelishuvlarning ijrosi) bilan bog‘liq nizoli vaziyatlarda oliy arbitr rolini o‘z zimmasiga olishga intiladi. Reketlik bilan shug‘ullangan holda jinoiy tashkilot mulkchilik huquqini himoyalash – barcha kriminal unsurlardan, shu jumladan, mazkur tashkilot a’zolaridan ham himoyalash xizmatlarini sotadi. Politsiyaning barcha kuchlari faqat mafiya bilan emas, balki tashkil qilinmagan jinoyatchilik bilan kurashga qaratilgan va mafiyaning o‘zi unga mazkur kurashda yordam beradi. Mafiya “oila” lari tashkil qilinmagan jinoyatchilarga tartibsizliklar keltirib chiqarish imkonini bermaydi». Shu sababli reket-biznesning rivojlanishini criminal politogenez, rasmiy hukumat bilan raqobatlashuvchi yashirin erzats –hukumatlarni yaratish shakli sifatida o‘rganish zarur. «...Mafiya, - deb yozadi shu masala bo‘yicha mashhur Amerika iqtisodchi-kriminologi E.Enderson, - qonuniy sud tizimi o‘z vakolatlarini bajarishda fiaskoga toqat qilayotgan sohalarda hukumat (qonunlarni ijro etuvchi va kriminal sud ijrochiligi) vazifasini bajaradi».“Yashirin” odil sudni tashkil qilishni o‘z zimmasiga olayotgan kriminal hukumat vazifasini individual jinoyatchilar va mayda raqobatlashuvchi to‘dalar kuchi bilan emas, balki faqat uzoq yillardan buyon amal qilib kelayotgan yirik tashkilotlar orqali bajariladi.

Bundan tashqari, nizoli hududlar tufayli o‘zaro to‘qnashishlarni bartaraf qilish maqsadida turli jinoiy tashkilotlar faoliyatini muntazam muvofiqlashtirib turish zaruriyati vujudga keladi. Buning uchun yirik jinoiy “oilalar” rahbarlaridan iborat ixtisoslashgan “direktorlar kengashlari” tuzilib, ularning muntazam yig‘ilishlarida kriminal faoliyatni strategik rejalashtirish va nizolarni tartibga solish amalga

oshiriladi. Ommaviy-huquqiy vazifalarni monopolashtirishdan boshlab, yirik jinoiy tashkilotlar kriminal ishlab chiqarish alohida turlarini monopolashtirishga tez o'tib ketadilar – o'ziga xos "milliy lashtirish"ni amalga oshiradilar. Mohiyatan har bir jinoiy tashkilot raqobatni markazlashgan taqsimotga to'liq almashtirgan holda gangster bozor xo'jaligi o'rniga gangster buyruqbozlik iqtisodiyotini tuzishga harakat qiladilar. Ammo bu mutlaqo amalda bajarilmaydi. Jinoiy biznesning bir tashkilot tomonidan to'liq monopolashtirilishiga, eng avvalo, kriminal ishlab chiqarish² texnologiyasining o'zi to'sqinlik qiladi. Jinoiy makonlarda, legal makonlardagi singari ob'ektiv ravishda monopol to'siqlar: ko'lam samarasi, taqchil xom ashyo resurslarini egallab olish imkoniyati kabi to'siqlar vujudga keladigan sohalargina monopolashadi.

Yuqoridagilar uyushgan jinoyatchilikning tarixiga nazar sifatida qarab o'tilishi maqsadga muvofiqdir. Uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashning nafaqat mamlakatimizda, balki jahon miqyosida ijtimoiy huquqiy, xususan, siyosiy tadqiqot obyektiga aylanganligining o'ziyoq bu muammoning naqadar dolzarbligini ko'rsatadi. Shu bois, mamlakatimizda uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashning faol mexanizmlarini yishishi barobarida jinoiy faoliyatning ham yangi ko'rinishlari shakllanib bormoqda ajratish borasida chuqur o'ylangan strategik chora-tadbirlar amalga tatbiq qilingan. Jumladan, uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashning milliy va xalqaro huquqiy asoslari yaratilgan va O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 29-moddasi 4-bandida "uyushgan guruh" tushunchasiga aniq ta'rif berib o'tilgan: «ikki yoki undan ortiq shaxsning birgalikda jinoiy faoliyat olib borishi uchun oldindannbir guruhga birlashishi uyushgan guruh deb topiladi»³. Shu bilan birga, ushbu moddaning 4-bandida ta'kidlangan jinoiy uyushmalarni tuzishning o'ziyoq jinoiy javobgarlikka tortishga to'liq asos bo'ladi hamda uyushgan guruh tomonidan sodir etilgan har qanday jinoyat o'ta og'ir turdag'i jinoyatlar qatorida e'tirof etiladi. Jinoyat qonunchiligiga binoan, jinoiy uyushmalar yoxud uning bo'linmalarini tuzish yoki unga rahbarlik qilish, shuningdek ularning mavjud bo'lishi va ishlab turishini ta'minlashga qaratilgan faoliyat jinoiy faoliyat deb e'tirof etilgan. Ushbu norma jinoiy spetsifikasiga ko'ra, uyushgan qurolli guruh tuzish va unga rahbarlik qilish yoki unda ishtiroy etish ham jamoat xavfsizligi va jamoat tartibiga qarshi qaratilgan o'ta og'ir jinoyatlar toifasiga kiritilgan. Mamlakatimizda aynan uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash borasida zarur chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda va shu maqsadda davlat boshqaruvi organlari tizimida maxsus organlar hamda xizmat sohalari tuzishga alohida e'tibor qaratilgan. Xususan, Ichki ishlar vazirligi va prokuratura organlari tizimida uyushgan

³ Ўзбекистон Республикасининг Жиноят кодекси: (2021 йил 10 сентябргача бўлган ўзгартиш ва кўшичмалар билан) – Т.: «Yuridik adabiyotlar publish», 2021 й. – 19-6. <https://lex.uz/docs/-111453>

jinoyatchilik hamda korrupsiyaga qarshi kurashda faoliyat ko'rsatuvchi bo'lim va bo'linmalar faoliyat yuritmoqda. Biz uyushgan jinoyatchilikning ichki tizimini o'ziga xos piramidaga qiyoslashimiz mumkin: criminal piramidaning quyi qismi keng bo'lib, asosan ijrochilardan tashkil topadi. Ushbu ijrochilar tarkibi o'zini «ishbilarmon» deb bilgan turli yulg'ichlar, xonadon o'g'rilibini sodir qiluvchi jinoiy guruhlar, firibgarlar, g'ayriqonuniy tarzda valuta operatsiyasini bajaruvchilar, fohishalar, narkobiznes orqali kun ko'rvuchilar kabilardan iboratdir. Undan yuqori turuvchi ikki bo'g'inni esa o'ziga xos ravishda «ta'minlovchi» va «xavfsizlik xizmati» guruhlari deb atash mumkin. Ta'minlovchilar aynan jinoiy harakatlarni bajarmasa-da, jinoiy faoliyatlarni amalgalashirishda zarur shart-sharoitlar yaratilishiga ko'mak beradilar. Xavfsizlik xizmati guruhi tarkibi jinoiy uyushmalar manfaatiga mos quyidagi shaxslardan tarkib topadi: davlat organlari va jamoatchilik tizimlarida xizmat qiluvchi ayrim noplak, korrupsiyaga ilashib qolgan huquqshunoslari, tibbiyot xodimlari, iqtisodchilar, jurnalistlar, adabiyot va san'at namoyandalari bo'lishi mumkin. Bu qatlAMDAGILARNING ba'zida jinoiy uyushma tarkibiga kiruvchi quyi tabaqadagilar bilan aloqalarning buzilishi yuzaga kelsa-da, (agar ma'lum bir ijrochilar yoki guruhlar javobgarlikka tortilgan bo'lsa ham), jinoiy faoliyatlarini to'xtab qolmaydi. Chunki uyushgan jinoiy guruhlarning yuqori tabaqasiga kiruvchilar doimo jazodan qutulib, o'zlarining jinoiy tashkilotchilik faoliyatlarini saqlab qoladilar. Jinoiy uyushmalar piramidasining yuqori qismini esa rahbarlar bo'g'ini (elita) tashkil etadi. Bu guruh tarkibiga yo'lboshchi (lider) va unga sodiq kimsalar kiradi hamda ular huquqiy, jinoiy (kriminal), iqtisodiy va boshqa turli yo'nalishlarda maslahatchilik qiladi. Ushbu pog'ona tarkibiga kiruvchi aynan shu guruh a'zolari ixtiyorida rahbarlar bo'g'inining boshqaruvchilarini qo'riqlovchi, turli jinoiy guruhlar bilan bo'ladigan mojarolarni bartaraf qiluvchi, ichki tartibni saqlovchi, jinoiy uyushma ta'sirida bo'lgan tijorat tizimlari va korxonalariga tazyiq o'tkazishda zarur bo'lgan jangarilar mavjud bo'ladi. Ko'pchilik hollarda bu ishlarga jalb qilinadigan jangarilar turli yuridik maqomdagi korxonalarning shtat ro'yxatlarida bo'lishi kuzatiladi. Jinoiy uyushmalarning rahbariyati esa ichki intizomni saqlash, daromadlarni va ta'sir ostida bo'lgan sohalarni taqsimlash, jinoiy uyushmalar tizimiga kiruvchi jinoiy guruhlar o'rtasida munozarali va nizoli masalalarni hal etish, tijorat tizimiga kiruvchi korxona va muassasalar rahbarlaridan «qarzlar» hamda kreditlarni undirish, turli jinoiy guruhlar va hududiy bo'linmalar bilan aloqalar o'rnatish (ba'zida xorijiy uyushgan guruhlar bilan ham), razvedka ishlarini tashkil etish, shuningdek raqobatchi guruhlarni jazolash kabi vazifalarni bajaradi. Yuqorida bayon etilganlarga asosan, uyushgan jinoyatchilikning quyidagi o'ziga xos jihatlari mavjud ekanligini ko'rsatish mumkin: xufiyona (nolegal va jinoiy) va iqtisodiy manbalarning mavjudligi; hokimiyat organlari va davlat boshqaruvi tizimida korrupsiyaga asoslangan aloqalarni yo'lga qo'yish (shu jumladan, huquqni muhofaza qilish organlarida), hokimiyat organlariga kerakli kimsalarni ko'tarish va qo'llab-quvvatlash, imkon boricha

jinoyatchilarning o‘zlari shu darajaga erishishga harakat qilishlari (bu o‘rinda jinoyat olamining siyosiy manfaatlari namoyon bo‘ladi); o‘z ta’sir doiralaridagi hududni kengaytirish (hudud va tarmoqlarni butunlay egallash, chet ellardan «hamtovoqlar» topish) o‘z g‘arazli maqsadlari yo‘lida ommaviy axborot vositalari tizimiga kirish va o‘zlarini jamoatchilikayaxshi ko‘rsatishni targ‘ib qilish; uyushgan guruhlarda qurolyarog‘ va boshqa zarur maxsus texnika vositalarining mavjudligi; jinoyat submultularining mavjudligi (jinoiy muhitda o’sgan bola, voyaga yetmasidanoq jinoyatchiga aylanishi mumkin. Bunda ma’lum ko‘nikmalarni o‘rgatish asosiy rolda bo‘ladi. Bularning barchasi jinoiy muhitda o‘sayotgan bolaning uyushgan jinoiy guruh a’zolari ijtimoiy ta’midot tomonidan rag’batlantirishlari oson kechadi); o‘zaro muvofiqlashgan faoliyatlarida imkon darajasida ko‘proq daromad olishga bo‘lgan maqsadning mavjudligi kabilar.Ushbu ijtimoiy illatga qarshi olib boriladigan kurash strategiyasi bilan bog‘liq profilaktika, huquqiy va tashkiliy chora-tadbirlarning amalga oshirilishini rejalashtirishga alohida e’tibor qaratilishini talab etadi. Bu kabi tadbirlarning amalga oshirilishini ta’minalash esa mavjud xufiyona iqtisodiyot va iqtisodiyot bilan bog‘liq barcha jinoyatlarni atroflicha tahlil etish bilan uzviy bog‘liqdir. Shuningdek, hozirgi kunda jamiyatning ijtimoiy tizimini ilmiy jihatdan baholash, aholining turli qatlamlari va guruhlariga nisbatan differential siyosat yuritishni yo‘lga qo‘yish talab etiladi. Shunga ko‘ra, quyidagi toifadagi shaxslarga alohida e’tibor qaratilishi maqsadga muvofiqdir:

shubhali tarzda daromad topayotgan va ko‘p miqdordagi mulk va moliyaviy mablag‘larga ega

shaxslarni;

kam daromadli, umuman moddiy ta’midotga ega bo‘lmaganlar;

jinoiy va ma’naviy buzuq yo‘lga kirganlar (jinoyatni kasb qilibolganlar, bir necha bor sudlanganlar, ichkilikbozlar, giyohvandlar, toksikomaniyaga yo‘liqqanlar o‘zgalar hisobiga kun ko‘rvuchilar tekintomoq fuqarolar, daydilar kabi) Hech shubhasiz, uyushgan jinoyatchilikning sabab va sharoitlarini aniqlamasdan turib, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijobjiy o‘zgarishlarning talab darajasida bo‘lishiga erishish mumkin emas, chunki uyushgan jinoyatchilikning mavjudligi oqibatida huquqtartibotning buzilishi va jamiyatda jiddiy asoratlarning yuzaga kelishi mumkin.

O‘z- o‘zidan savol tug‘iladi, jinoyatchilar to‘plagan bu kabi katta mablag‘lar nimalarga sarflanadi?

Bu borada olib borilgan tadqiqotlardan ma’lum bo‘ldiki, bu mulk asosan to‘rtta ulushga bo‘linadi:

birinchi va ikkinchi ulushlar xufiyona iqtisodiyotni (xom ashyo, fondlarni saqlovchilar, tovarshunoslar, yuk tashuvchilar kabi va turli kutilmagan «mehmonlar» (taftishchilar, soliq va bojxona idorasining xodimlari va davlatning maxsus kurashga mas’ul organlari kabilar)ga sarflanadi; uchinchi ulush yuqori ta’midotga erishishga

xizmat qiladi; to‘rtinchisi esa pulni xazinaga aylantirish. Eng achinarlisi, xufiyona iqtisodiyot o‘z manfaati uchun muomalada bo‘lgan naqd pullarni muomaladan imkon boricha ko‘proq olishga harakat qiladi;

uyushgan jinoyatchilikni tuzish orqali o‘z faoliyati va xavfsizligini ta’minlash (mikrosotsial omillar). O‘z vaqtida uyushgan jinoyatchilik davlatning huquqni muhofaza qilish organlariga

qarshi turish uchun asosan quyidagi uch yo‘nalishlarda ish olib boradi:

1) huquqni muhofaza qiluvchi organlar va ularning faoliyatlarini qasddan buzib ko‘rsatish va izdan chiqarishga erishish

2) huquqni muhofaza qilish organlari olib borayotgan tadbirlarni muntazam kuzatib borish; 3)ayrim jinoiy faoliyatlarga huquqni muhofaza qilish organlarining xodimlarini tortish va jalb qilishga erishish. Uyushgan jinoyatchilik bilan bog‘liq ma’naviy muhit – faqat o‘z manfaatlarini o‘ylash, xususiy mulkchilikka o‘ta berilish, davlat boshqaruvi tizimiga kiruvchi rasmiy organlar faoliyatiga ishonchsizlik bilan qarash, ularning zarur ehtiyojlarni ta’minlashdagi tutgan o‘rnini e’tirof etmaslik kabilalar ham o‘ziga xos ravishda jamiyatga o‘ta salbiy ta’sir etadi. Shu tufayli xalqaro tadqiqot va statistika faoliyati bilan shug‘ullanuvchi bir qator tashkilot va universitetlar davlatlardagi huquqiysiyyosiy va ma’naviy muhit to‘g‘risida tez-tez reyting e’lon qilib turadi.

Global Initiative against Transnational Organized Crime ташкилоти давлатларнинг 2021-йил учун

Uyushgan jinoyatchilik darajasi bo‘yicha navbatdagi reytingini e’lon qildi. O‘zbekiston ro‘yxatda 4,96 ball bilan 90-o‘rinni egallagan.

Reyting mualliflari mamlakatlarni uchta mezon bo‘yicha baholadilar:

- Jinoiy bozorlarning ko‘lami va ta’siri;

-To‘rt turdagи jinoyatlarning tuzilishi va ta’siri (mafiya, jinoiy tarmoqlar, davlat idoralariga

o‘rnatilgan jinoiy tuzilmalar va xorijiy jinoiy tuzilmalar);

-Mamlakatlarning uyushgan jinoyatchilikka chidamliligi.

Davlatlar har bir mezon bo‘yicha 1 dan 10 ballgacha baholangan, bunda 1 ball past darajadagi jinoyatchilik, hukumatning jinoiy doiralarga qarshilik ko‘rsatishga yuqori tayyorgarligini anglatadi. Reytingda 193 ta davlatdan birinchi o‘rinni Kongo Demokratik Respublikasi (7,75 ball) egallagan. Keyingi o‘rinlarda Kolumbiya (7,66) va Myanma (7,59) joy olgan. Jinoyatchilik avj olgan davlatlar o‘ntaligiga Meksika, Nigeriya, Eron, Afg‘oniston, Iroq, Markaziy Afrika Respublikasi va Gonduras kirgan. MDH давлатларидан Rossiya 32-o‘rinni, Tojikiston 62-o‘rinni (5,61), Qирғизистон 72-o‘rinni (5,33), Ozarbayjon va Belarus 83-o‘rinni, Turkmaniston 113-o‘rinni (4,61), Moldova 123-o‘rinni, Qozog‘iston 133-o‘rinni va Armaniston 171-o‘rinni (4,26)

egallagan. Uyushgan jinoyatchilik eng past darajada bo‘lgan davlat sifatida Tinch okeanidagi Tuvalu davlati e’tirof etilgan. U 1,54 ball bilan reytingning oxirgi pozitsiyasidan joy olgan. Jinoyatchilikdan holi davlatlar o‘ntaligiga, shuningdek Nauru, San-Tome va Prinsipi, Lixtenshteyn, Samoa, Vanuatu, Marshall orollari, Kiribiti, Lyuksemburg va Monako kirgan.

Xulosa o‘rnida, uyushgan jinoyatchilikning oldini olish va bartaraf qilish uchun quyidagi choratadbirlarni amalga oshirish tavsiya qilinadi:

birinchidan, huquqni muhofaza qiluvchi organlar o‘zaro hamkorligining shakli va usullarini yaratish orqali, ularning faoliyat yo‘nalishlarini tarmoqlararo tuziladigan muvofiqlashtiruvchi organ olib boradigan hamda ma’lum bir vaqt oralig‘iga mo‘ljallangan dastur asosida zarur vazifalarning bajarilishini belgilash;

ikkinchidan, uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashga faqat maxsus tayyorgarlikdan o‘tgan shaxslarni jalg etish;

uchinchidan, uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashuvchi maxsus guruhlarni zarur moddiy-texnikaviy jihozlar bilan ta’minalash;

to‘rtinchidan, mamlakatda fuqarolarning oladigan daromadlarini nazorat qilishning aniq mexanizmini yaratish va shu orqali bozor iqtisodiyoti sharoitida g‘ayriqonuniy daromad olishga yo‘l qo‘ymaslik, ularning xufiyona iqtisodiyot korchalonlari va uyushgan jinoyatchilik yo‘lboshchilarini ta’siriga tushib qolmasligi hamda korrupsiya ta’siriga tushib qolgan «xalq g‘amini o‘ylovchi» kimsalarga zarba berish.

Uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashda ichki ishlar organlarining xalqaro hamjamiyatlar bilan aloqa o‘rnatishi va shu orqali uyushgan jinoyatchilikning xalqaro miqyosda harakatda bo‘lgan tashkiliy tuzilmalari faoliyatlarini cheklash muhim va dolzarb vazifa ekanligiga alohida e’tibor qaratilishi lozim. Eng muhimi, uyushgan jinoyatchilikka qarshi qaratilgan kurashni tako-millashtirish uchun, birinchi navbatda, ushbu faoliyat yo‘nalishini muvofiq-lashtiruvchi huquqiy asoslarni yanada takomillashtirish va xorijiy tajribani o‘rgangan holda milliy qonunchiligidizga implementatsiya qilish talab etiladi. Bugungi tezkor axborot zamonida, uyushgan jinoyatchilik ijtimoiy hayotning turli sohalarini o‘z ta’siriga olmoqda.

Zero, ushbu unsur bilan talab darajasidagi kurashni yo‘lga qo‘ymasdan, jamiyatda mavjud bo‘lgan ijtimoiy munosabatlarni rivojlantirish murakkab kechadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

- Ўзбекистон Республикасининг Жиноят кодекси: (2021 йил 10 сентябргача бўлган ўзгартиш ва кўшимчалар билан) – Т.: «Yuridik adabiyotlar publish», 2021 й. – 560 б.

2. Kriminologiya: Darslik / Z. S. Zaripov, A. S. Yakubov, G. A. Avanesovvaboshq.; prof. Z. S. Zaripovtahririoстида. – Т.: O‘zbekistonRespubli- kasiIVAkademiyasi, 2008. – 420 b.
3. Kriminologiya: Darslik / Z. S. Zaripov, Q. R. Abdurasulova, Y. S. Pulatov vboshq.; prof. Z.S. Zaripov tahriri ostida. – Т.: O‘zbekistonRespubli- kasiIVAkademiyasi, 2006. – 474 b.
4. H.P.Abulqosimov,Mo’minov N.G.Mo’minov Xufyona iqtisodiyot /o’quv qo’llanma/Toshkent”Yangi nashr” 2020 227-bet
5. Гуров А.И. Организованная преступность / А.И. Гуров // Криминология : учеб.пособие / Г.И. Богуш, О.Н. Ведерникова, М.Н. Голоднюк [и др.] ; науч. ред. Н.Ф. Кузнецова. – 2-е изд., перераб. и доп. – М. : Проспект, 2012. – 73 с.
6. Долгова А.И. Преступность, ее организованность и криминальное общество / А.И. Долгова. – М. : Рос. криминол. ассоц., 2003. – 183 с.
7. [https://lex.uz/docs/-111453¹](https://lex.uz/docs/-111453) : Беркинов Б.Б. Институционал иқтисодиёт: ўкув қўлланма / Б.Б.
8. Беркинов; ЎзР олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги, Тош. Давлат иқтисодиёт ун-ти, Институционал ва иқтисодий тадқиқотлар маркази. – Т.: Yangi nashr, 2011. – 70-бет. Никифоров А. С. Гангстеризм в США: сущность и эволюция. М., 1991. С.
9. Айдинян Р., Гилинский Я. Функциональная теория организации и организованная преступность. С. 63. См. также: Дадалко В. А., Румянцева Е. Е., Пешко Д. А.Теневая экономика и кризис власти: проблемы и пути решения. Минск, 2000. Гл. 2.